

## O'ZBEKISTON TOKZORLARI FITONEMATODAFAUNASI O'RGANILGANLIGINI QISQACHA TAHLILI

Ergasheva Nodira Sodiqjon qizi

*ergashevanodiraxon@gmail.com*

Abdurahmonova Gulnora Abdurahmonova

*agulnora243@gmail.com*

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tok o'simligi ildizi va ildiz atrofi tuproq fitonematomalarini o'rganish bo'yicha ilmiy ishlar olib borgan olimlar va ularning shu sohada olib borgan tadqiqotlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Tuproq, fitonematomalar, fitogelmintologiya, bakteriya, tokzorlar, biotop, zarakurandalar.*

Hozir har bir soha rivojlanib tez suratlarda o'sib borayotgan bir paytda dunyo miqqosida oziq-ovqatga bo'lgan talab kundan kun ortib bormoqda. Aholining oziq-ovqatga bo'lgan talabini to'liqroq qondirish O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda insonlar organizimiga tabiiy mahsulotlar oziqaviy qiymati yuqori bo'lgan oziq-ovqat sabzavot va mevalar yetishtirish va o'z vaqtida aholiga yetkazib berish muhim hisoblanadi. Bunda mevalarning odam boshiga nisbatan ko'payishi ham ko'zda tutilgan. Bularning ichida o'zining shirinligi va shifobaxshligi bilan uzum muhim o'rinn tutadi[9, 10]

Uzumchilik mamlakatimiz qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. O'rta Osiyo xususan O'zbekistonda uning ro'li ayniqsa katta[11, 12].

Tok-uzum - *Vitis vinifera* uzumdoshlari oylasidan, chirmashib o'suvchi butadir. Aprel, may oylarida gullaydi. Mevasi avgust-sentyabr oylarida pishadi. Mevasini quritib mayiz, vino sanoatida turli xil ichimliklar vino, konyak, shampanlar va sharbatlar, qiyomlar tayloranadi. Uzum tarkibida 65-85% suv, 33% gacha qand, 0,5-1,4% organik kislotalar, C, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub> vitaminlar, urug'ida 4-19% moy, 1,8-8% oshlovchi moddalar bor [8].

Uzumzorlarda turli zararkunandalar filoksera, turli qo'ng'izlar va ularning lichinkalari. O'simliklarni ximoya qilish institute mutaxassislari tomonidan ushbu zararkunandalar yaxshi o'rganilgan va ularga qarshi kurash choralar ishlab chiqilgan. Fitonemotodalarga kelsak bularni ichida ham parazit turlari bo'lib, ular tok o'simligida uchraydi va o'simliklarga ulardan kam zarar keltirmaydi, lekin ularni keltiradigan zarari hali yaxshi o'rganilmagan[10, 12].

Olimlar E.S.Kiryanova va E.L.Krall, A.T.To'laganov va A.Z.Usmonovalarning malumotlariga qaraganda tuproqda tarqalgan organizimlar orasida fitonematomalar bakteryalardan so'ng eng ko'p sonli hisoblanadi. Nematodalar to'garak chuvalchanglar (Nemathelminthes) tipi, nematodalar (Nematoda) sinfiga mansub. Nematodalar turli xil muhitda yashashga moslashgan bir necha o'n ming turlarni o'z ichiga oladi. Ularni yer yuzining deyarli barcha biotoplarida xatto suv tubudagi balchiqda ham uchratish mumkun. Nematodarning bir qancha turlari odam, hayvonlar va o'simliklarning turli organlarida parazitlik qiladi. Shunga muvofiq har bir nematoda turli oziqlanish xususiyatiga ega. Hayoti o'simlik ildiz sistemasi bilan bog'liq nematodalarni fitonematomalar deyiladi. Ularni o'rganadigan fan Fitogelmintologiya [4, 6, 7].

Taniqli fitogelmintolog olim A.A.Paramonov fitonematomalarini oziqlanish xiliga ko'ra to'rtta ekologik guruhga ajratgan. Pararizobiontlar, eusaprobiyontlar, fitogelmintlar[5].

Pararizobiontlar – erkin yashovchi nematodalar hayoti o'simlik ildiz sistemasi bilan bog'liq. Bularni politroflar ham deyiladi. Bular asosan o'simlik ildiz sistemasi bilan bog'liq bo'lib, o'simlik shirasi xisobiga oziqlanadi. Lekin o'simliklarda alohida sezilarli patologik belgilar keltirib chiqarmaydi. O'simlik tanasin nishi orqali teshib, mehanik tasir 'rsatadi, viruslar, bakteriya, zamburug') kirishi uchun yo'l ochib beradi (inkokulyator). Pararizobiontlar ichida detitofaglari bo'lib, asosan nam yetarli tuproqlarda uchraydi. Ularni hayoti suvli muhit bilan chambarchas bog'langan. Shu sababli ularni nam tuproqlarda teztez uchratish mumkun. Ular mikroskopik suv o'tlari, bakteryalar va boshqalar bilan oziqlanadi. Alohida nematoda turlari ayrim hollarda faqat o'simlikning ildiz atrofidagi tuproqlarda uchrashi mumkun. Eusaprobiyontlar-xaqiqiy saprobiotik nematodalar bo'lib, hayoti tuproq va o'simlik to'qimalaridagi chiriyotgan o'simlik organlarida va o'simlikning chirigan qoldiqlari bilan bog'liq. Bular saprobiotik o'choqlarda, o'simlik organlarida va o'simlikning chirigan qoldiqlarida yashab, saprobiotik buzilishlarga sababchi bo'ladi. Ular bakteriya va detritlar xisobiga oziqlanadi[2,3,5]. Devisaprobiyont nematodalar bularni chala saprobiotik nematodalar ham deyiladi. Bularning hayoti ham o'simlik qoldiqlari ham sog'lom o'simlik ildizi bilan bog'liq. Ular saprobiotik muhitdan o'zining xayotiy manbayi sifatida foydalanib, yani oziqlanib, bazi hollarda sog'lom o'simlik to'qimalarda ham yashashi mumkin. Devisaprobiyont nematodalar bakteryalar, zamburug'lar va o'simlik to'qimasi bo'laklari bilan oziqlanib, sanitarlik vazifasini bajaradi.

Fitogelmintlar o'simlik parazit nemotodalari bularni ikkita kichik guruhga bo'lib o'rganiladi. 1. Xaqiqiy parazitlar-sog'lom o'simlik to'qimalari bilan

zararlangan o'simliklarda patologik o'zgarishlar paydo bo'ladi. Bularni ovqat hazm qilish sistemasi otkir sitilit bilan qurorlangan, ninaga o'xshash stilet (sanchib-so'ruvchi organi). Stilet yordamida parazit nematodalar o'simlik to'qimasi va xujayralarini teshib, ichidagi syuqlik bilan oziqlanadi.

Fitonemotodolar tuproq organizmlari sifatida, tuproqda o'simlik qoldiqlarni o'zlashtirishda ishtirok etadi, tuproq hosil bo'lish jarayonlarida ham muhim o'rin tutadi. Ular biogeosenozlarda bo'ladigan moddalar almashunuvida ham muhim ahamiyat kasib etadi. Biz, shu vaqtgacha o'rganilmagan, Farg'ona vodiysi tokzorlarining fitonematoda faunasini o'rganishni maqsadi qildik.

Mustaqil ona yurtimizda turli ekin maydonlari mevali bog'lar, tokzorlari nematodalar kompleksini atroficha o'rganishga katta ahmiyat berilmoqda. Shu sohani mukammal egallabgina nematodalarning parazit turlariga qarshi zamonaviy kurash chora-tadbirlarni izlab topish imkonи qo'lga kiritiladi.

Professor A.T.To'laganov O'zbekistonda fitogelmintologiya maktabiga asos slogan olimlardan xisoblanadi. Olimning O'zbekistonning o'simlik zararlovchi va tuproq nematodalari ilmiy asari, Zarafshon vodisidagi tokzorlar va ularning tuproq atrofi qatlami nematodofaunasini o'rganishga doir o'tkazilgan ilmiy ekispedisiyasi natijalari asosida yaratilgan. Lekin bu ishlar amalga oshirilganiga ko'p yillar bo'ldi. Bu asarda olim birinchi marta tokzorlar nematodalarini tarkibini miqdoriy va sifat xususiyatlarini tahlil qilib berdi. Muallif Zarafshon vodiysining ko'pgina tumanlaridan 120 ga yaqin namunalar olgan. Tadiqotlar natijasida 871 ekzempliar nemotodalar topilgan. Ana shu nematodalarning 16 turi toklarning ildiz va ildiz atrofi tuproqlaridan topilgan. Bu topilgan 16 turdagи nematodalarning barchasi, o'rganilgan hudud uchun yangi qayd etilgan.

Tokzorlarda uchraydigan nematodalar faunasining bat afsil tekshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarnatijalari atroficha E.P.Azizovaning ilmiy ishlarida aks etgan[1, 2, 3].

E.P.Azizovaning Toshkent viloyati tokzorlari o'simlik ildizi va ildiz atrofi tuprog' qatlamlarida nematodalar kompleksini o'rganishga doir ilmiy asarida o'simlik ildizidagi va ildiz atrofi tuproq qatlamidagi nematodalarning ro'yxati berilgan. Ular 102 turi tashkil etadi. Olma tomonidan namunalar Toshkent viloyatining bir necha tumanlari Qibray, Oqqo'rg'on, Yuqori Chirchiq, Yangiyo'l tumanlari turli uzumchilik, bog'dorchilik xo'jaliklaridan olingan.

Namunalar laboratoriya sharoitida kameral ishlovdan o'tgan. Ilmiy tekshirishlar jarayonida Qibraydagi 1-meva uzumchilik jamoa xo'jaligidagi tokzorlarning gullagandan toki hosil yeg'ib olinadigan davrgacha bo'lgan rivojlanish xolatlari ham xisobga olingan va qayd etilgan. Tadqiqot natijalari 1967 yili desertatsiya ko'rinishida chop etilgan.

Yuqoridagi malumotlardan kelib chiqib, O‘zbekiston sharoitida tokzorlar fitonemotodofaunasi kam uchraganligi malum bo‘ldi.Yuqoridagi malumotlardan kelib chiqib,O‘zbekiston sharoitida tokzorlar fitonemotodofaunasi kam o‘rganilganligi malum bo‘ldi.Tadqiqot ishlari olib borilgan hududlar ham u yerlarda tadqiqot ishlari ancha yillar avval olib borilganligi, O‘zbekiston tokzorlari fitonemotodofaunasi o‘rganishga muhtojligi aniqlandi.Ayniqsa Farg‘ona vodiysi uzumchilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklarga boy,lekin fitonemotologik tadqiqot ishlari hali olib borilmagan.Shularni etiborga olib Farg‘ona vodiysi ayrim uzumchilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklarida fitogelmintologik tadqiqot olib borishni maqsad qildik.Maqsadni amalga oshirishda quydagи vazifalar qo‘yildi:tok-uzum o‘simgagini turli xil navlari o‘simglik ildizi va ildiz atrofida uchraydigan fitonemotodalarni tur – tarkibini o‘rganish, taksonomik, anatomik,morfologik va ekologik hususiyatlarini belgilash,parazit turlarini aniqlashi, parazit turlarini qishloq xo‘jaliga qanday zarar yetqazishni aniqlash va parazit turlariga qarshi kurashi choralarini ishlab chiqish, oldini olish chora tadbirlarini to‘g‘ri tashkillashtirish.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Азизова Э.П. Фитонематоды виноградников Узбекистана. Автореферат кандидатской диссертации. Ташкент, 1967. стр.33.
2. Азизова Э.П., Сиддиков Д.Г., Эшова Х.С., Ибрагимов К.С. Распространение паразитических нематод вирусоносителей рода Xiphinema в различных ландшафтах Узбекистана. // Основные достижения и перспективы развития паразитологии. М., 2004, с.50-51.
3. Азизова Э.П. Фауна и динамика нематод виноградников. // Вопросы фитогельминтологии в Узбекистане. Ташкент, 1977, стр.1-48.
4. Mo‘minov B.A., Eshova X.S.,Raximov M.Sh., Abdurahmonova G.A., Saidova Sh.O., Jumaniyozova D.K. O‘zekiston sanoat xududlari tuproqlarining umurtqasiz hayvonlari. Toshkent “Muntoz so‘z”. 2016.
5. Парамонов А.А. Основы фитогельминтологии. М., 1964. –Т. I. стр.446. – М., 1970. Т. 2. стр. 443
6. Тулаганов А.Т., Усманова А.З. Фитонематоды Узбекистана . Ташкент, 1975, - Т. I. стр.335.
7. Тулаганов А.Т., Усманова А.З. Фитонематоды Узбекистана . Ташкент, 1978, - Т. II. стр.340.
8. O‘zekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan Meva-uzum navlarining Katalogi.Toshkent-2016. [uzum navlari Katalogi 2016. 48-63 b.

9. M.Sh.Rahimov, Sh. N.Omonov. Bioecological peculiarity of the Privet hawk moth (*Sphinx ligustri*, Linnaeus, 1758). International jurnal of Entomology Research. Volume 3, 2023 y. Pp. 17-19.
10. M.Sh.Rahimov, Sh.N.Omonov. Zarafshonning o'rta oqimi hududlarida *Laothoe populi* (Linnaeus, 1758)-arvohkapalagining bioekologik xususiyatlari. GOLDEN BRAIN. Volume 2, 2023, pages 240-246.
11. Sh.N. Omonov. O'zbekistonda arvohkapalaklarning o'rganilganlik darajasi. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. Volume 1, 2022, pages 89-91.
12. Рахимов М.И. Совки (сем. Noctuidae) антропогенных ландшафтов Хорезмского оазиса (фауна, биология, экология). Автореф. дисс. канд. биол.наук.- Ташкент, 1997.-21 стр.